

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Toshkent avtomobil-yo'llar instituti

«Avtomobil yo'llari va aeroportlar» kafedrası

5580200 «Bino va inshootlar qurilishi» va 5580600
«Transport inshootlaridan foydalanish» bakalavriyat ta'lim
yo'nalishlari bo'yicha o'quv-tanishuv amaliyoti
DASTURI

Toshkent 2006

5580200 «Bino va inshootlar qurilishi» va 5580600 «Transport inshootlaridan foydalanish» bakalavriyat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-tanishuv amaliyoti dasturi, shu yo'nalishlar bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun tasdiqlangan o'quv dacturlariga muvofiq tuzilgan.

Mualliflar:

dots. Qayumov A.D.
κ. o'q. Ikromova F.X.
dots. Abلاقulov A.A.

Taqrizchi:

Kafedra majlisida muhokama qilindi va maqullandi

Bayonnoma № _____ “____” _____ 2006 y

Kafedra mydiri:

t.f.n. Eshonqulov

Maxsus fanlar bo'yicha ilmiy-uslubiy kengash majlisida ko'rilib, _____ 2006 y tasdiqlangan, bayonnoma № _____

Mundarija

Kirish	4
I.O'quv-tanishuv amaliyotining maqsadi va vazifalari	4
II. O'quv-tanishuv amaliyotini o'tkazish joyi va muddatlari .	6
III. O'quv-tanishuv amaliyotining mazmuni	8
IV. O'quv-tanishuv amaliyotini tashkil qilish va uni boshqarish	
V. Hisobotning tarkibi va mazmuni	14

Kirish

Talabalarning o'quv-tanishuv amaliyoti yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, "Talabalarning amaliyoti to'g'risidagi ko'rsatma" ga asosan o'tkaziladi. Bu amaliyot yo'l qurilish tashkilotlarida, aeroportlarda, metro qurilishida, ilmiy-tadqiqot va loyiha institutlarida o'tkaziladi.

Dastur 5580200 «Bino va inshootlar qurilishi» va 5580600 «Transport inshootlaridan foydalanish» yo'nalishi bakalavrlarining o'quv rejasiga asosan tuzildi.

I. O'quv-tanishuv amaliyotining maqsadi va vazifalari

5580200 «Bino va inshootlar qurilishi» va 5580600 «Transport inshootlaridan foydalanish» yo'nalishi bakalavrlari I-kursning oxirida 2 xaftalik o'quv-tanishuv amaliyotini o'taydilar.

Bu amaliyotning asosiy **maqsadi** talabalarda quruvchi kasbi to'g'risida asosiy tasavvurni hosil qilish va natijada shu kasbga qiziqish uyg'otishdan iboratdir.

Bu vazifa institutning qurilish yo'nalishi bo'yicha "Avtomobil yo'llari va ayroportlar" va "Ko'priklar va transport tunellari" kafedralari professor-o'qituvchilari rahbarligida avtomobil yo'llari va inshootlarini konstruktiv qisimlarini o'rganishga, yo'l qurilish texnologik jarayonlarini tashkil qilish va boshqarishga qaratilgan ishlab chiqarishda olib boriladigan ekskursiyalar orqali amalga oshiriladi.

O'tkaziladigan ekskursiyalarda bo'lajak bakalavrlar quyidagilarga alohida diqqat qaratishlari kerak bo'ladi:

- Avtomobil yo'llari va aeyrodrom qurilishini tashkil qilish strukturasini, uning tarkibiga kirgan asosiy va yordamchi ishlab chiqarish korxonalarini turlari va ularning ahamiyatlari;

- Organik bog'lovchi materiallarni ishlab chiqarish va saqlash masalalari;

- Tosh, shag'al va qum kar'rlari, tosh maydalovchi korxonalarning ishlab chiqarish jarayonlari ;

- Asfal'tobeton va sementobeton zavodlarining tuzilishi va ularni tarkibi;

-Avtomobil yo'l ko'priklarini quruvchi korxonalarining ish jarayonlari;

-Yo'l ta'mirlash va saqlash korxonalarining strukturasi;

-Yo'llardan foydalanish boshqarmalarining ish tarkibi;

-Ilmiy-tadqiqot va Loyihalash institutlarining tuzilmalari.

Talabalar qurilish olib borilayotgan hududlarda quyidagilar bilan tanishishlari kerak:

1. Avtomobil yo'li hamda aeyroport va aeydromlarni yo'l poyi va to'shamasini qurish;

2. Yo'llarni ta'mirlash, qayta qurish va saqlash;

3. Metropoliten va ko'priklarni qurish va ulardan foydalanish jarayonlari;

4. Kichik sun'iy inshootlar.

Undan tashqari talabalar avtomobil yo'llariga servis xizmatini ko'rsatish kompleks ishlari bilan ham tanishadilar.

II. O'quv-tanishuv amaliyotini o'tkazish joyi va muddatlari

O'quv-tanishuv amaliyotini tashkil etish va o'tkazish uchun institut tomonidan belgilangan amaliyot raxbari quyidagi tashkilotlar bilan shartnoma tuzadilar:

1. "O'zavtoyo'l" Davlat aksiyadorlik kompaniyasi..

2. “O’zbekiston xavo yo’llari” kompaniyasi.

3. Asfaltobeton va sementobeton zavodlari, Yig’ma temirbeton konstruksiyalari zavodi.

4. “O’ztransqurilish” davlat assotsiyasiyasi.

Shartnomada oquv tanishuv amaliyotini o’tkazish uchun qurilish joylari va korxonalari ko’rsatiladi, ularga borish kunlari belgilanadi.

Shartnoma ixtisoslashgan kafedrlar midirlari tomonidan tasdiqlanadi. Shartnomada quyidagi qurilish joylari va korxonalariga ekskursiya qilishni va tanishishni rejalashtirishi tavsiya etiladi:

1.Tosh maydalaydigan zavodlar: toshlarni maydalaydigan, yuvadigan, boyitadigan va saralaydigan sexlar. Xarakatlanuvchi maydalaydigan-saralaydigan uskanalar. Mineral kukunlari zavodi va sexlari. Sifatni nazorat qiluvchi laboratoriyalar;

2. Asfaltobeton va sementobeton zavodlari: asfaltobeton va sementobeton qorishmalarini ishlab chiqaruvchi uskanalar, ABZ va SBZ larni bosh rejasi, omborxonalar, sifatni nazorat qiluvchi laboratoriyalar;

3. Bitum materiallari bazasi va emul’siyalar bazasi va zavodlari. Ularni bosh rejasi.

4. Temirbeton buyumlari konstruksiyasi zavodlari.
Temirbeton buyumlari konstruksiyasi sexlari. Tayyor maxsulotlarni saqlash omborxonalari

5. “Yo’l loyiha byurosi”. Yo’l bo’limi, ko’priklar bo’limi, geodeziya markazi, smeta bo’limi.

6. Toshmetroloyiha instituti: loyiha bo’limi, lahim va poydevorlar bo’limi, geologiya bo’limi, mexanizasiya bo’limi, smeta bo’limi;

6. Avtomobil yo’llari ilmiy-tadqiqot instituti: sifat nazorati markazi, me’yoriy hujjatlar bo’limi, standartizatsiya bo’limi, ilmiy-tadqiqot laborato-riyasi.

O’quv rejaga asosan o’quv-tanishuv amaliyoti 2 hafta davomida (26.06.06-8.07.06 yy) o’tkaziladi.

III. O’quv-tanishuv amaliyotining mazmuni

O’quv-tanishuv amaliyotini o’tish davrida talaba amaliyot maqsadlari va shaxsiy topshiriq mazmuniga ko’ra quyidagilarni bajarishi kerak:

-Yo’l va aeyrodrom qurilishi ishlarining ishlab chiqarish texnologiyasi, ishlab chiqarish korxonalarining ish faoliyati bilan tanishuv;

-Avtomobil yo'llaridagi kichik suv inshootlari, ko'priklar, yo'l o'tkazgichlar va ularning konstruktiv qisimlari bilan tanishuv;

-Laboratoriya, maxsulot sifatini nazorat qilish tizimi bilan tanishuv.

-Avtomobil yo'llariga servis xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan tanishuv.

-Asfaltobeton, sementobeton, yig'ma temirbeton zavodlari, bitum sexlari, kar'erlar, tosh maydalash zavodlari bilan tanishuv.

IV. O'quv-tanishuv amaliyotini tashkil qilish va uni boshqarish

O'quv-tanishuv amaliyoti o'tkaziladigan korxona, tashkilotlar va ularga boradigan talabalarni taqsimlanishi kafedra yig'ilishida muhokama qilinadi va tasdiqlanadi.

Kafedraning qarori asosida amaliyot raxbarlari, institut rektorining talabalarni o'quv-tanishuv amaliyotiga yuborish haqidagi buyruq loyihasini tayyorlaydilar va uni belgilangan tartibda rasmiylash-tiradilar.

Institut rektorining buyrug'iga binoan o'quv-tanishuv amali-yotiga boruvchi talabalarga dekanat va kafedra tomonidan yo'llanma va guvoxnoma beriladi.

Kafedra tomonidan tayinlangan rahbar talabalarni dastur, uslubiy ko'rsatma va amaliyot kundaliklari bilan ta'minlaydi.

Amaliyot rahbari institut rektori tasdiqlagan va amaliyotga yuborilayotgan talabalar ro'yxati keltirilgan rasmiy xat bilan amaliyot o'tkazilishi mo'lgallangan korxonaga boradi. Ular amaliyot joyiga kelgandan so'ng texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishadilar.

Bunda ular quyidagi majburiy qoidalar bilan tanishishlari kerak:

1. Ishlab chiqarish jarayonida xavfsizlik texnikasi, ishlab chiqarish sanitariyasi, yong'in va portlash xavfsizligi qoidalari;

2. Ish jarayonida ishlatiladigan asboblari, ularni asosiy vazifalari, ularni ishlatishda texnika xavfsizligi.

3. Ish joyida ishlab chiqarishga ta'sir qiluvchi zararli Faktorlar (yuqori yoki past havo harorati, havo almashish tezligi va undagi zararli qo'shimchalar, ishlab chiqarish changi, tebranish, zararli moddalar konsentratsiyasi va boshqalar).

4. Barcha yuk ortish va tushirish mashinalarini ishlash usullari, ularni tuzilishi, ishlash mohiyati, ularga qo'yiladigan asosiy talablar texnika xavfsizligi.

5. Elektr xavfsizligi masalalariga alohida ahamiyat berish. Elektrlashtirilgan asboblarni texnika xavfsizligini ta'minlash.

6. Qurilish maydonida harakat qoidalariga rioya qilish. Yer qazuvchi mexanizmlarning ishlash davrida qurilma transporti harakati va yuklarni kranlar bilan tashish, mexanizmlarning ish maydonida turishi, ko'tarilgan yuk tagidan o'tish va turish man qilinadi, mahsus o'tish joylaridan foydalanishga ruxsat beriladi.

7. Halokat yoki baxtsiz xodisa yuz berganda bu haqida darhol raxbarga xabar berish. Imkoni bo'lsa daslabki tibbiy yordam berish.

8. Temir yo'li bo'ylab amaliyot joyiga guruh bo'lib jo'nash yoki qaytish vaqtida temir yo'l transporti yo'lovchilari uchun belgilangan qoidalarga qat'iyan rioya qilish.

Korxona rahbariyati bilan kelishilgan holda talabalarni ushbu korxonada amaliyot o'tishi haqidagi buyruq belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi. Buyruqda amaliyot o'tkaziladigan

bo'linma va sexlar, korxona tomonidan belgilanadigan amaliyot rahbarining ismi-sharifi keltiriladi.

Amaliyotga 3 kundan ko'p muddatga kechikib kelgan talabalar amaliyot o'tishdan chetlatiladi va kafedra mudiriga yo'llaniladi.

O'quv-tanishuv amaliyotini tashkil qilish va o'tkazish uchun asosiy mas'ul shaxs kafedra mudiri bo'lib, bevosita rahbarlik kafedraning tajribali o'qituvchilariga topshiriladi. Korxona tomonidan rahbarlikka, talabalar amaliyot o'tayotgan bo'linma, sex, qurilish bo'linmalarini yuqori malakali mutaxassisleri tayinlanadi.

Korxona tomonidan tayinlangan rahbar amaliyot dasturiga binoan talabalarni imkoniyat darajasida zarur ma'lumotlar va xujjatlar bilan ta'minlaydi.

Amaliyot o'tish davrida talaba amaliyot kundaligini to'ldirib boradi va unda har kuni bajargan ishlarini aks ettirladi.

Amaliyotning oxirida talaba ushbu dasturning V bo'limida ko'rsatilgan tartibda amaliyot bo'yicha hisobot yozadi. Hisobotning birinchi beti korxona va institut tomonidan tayinlangan raxbarlar tomonidan imzolanadi, korxona muxri bilan tasdiqlanadi.

Talabalar amaliyotini bevosita boshqaruvchi rahbar quyidagi-larni bajarishga majbur:

- o'quv-tanushuv amaliyotini iqtisoslikka bog'liq bo'lgan joylar-da o'tkazish;

- talabalarni o'quv-tanishuv amaliyoti o'tadigan joylar bilan oldindan tanishtirish;

- ishlatiladigan jihozlar, mexanizmlar va ulardan foydalanish, mehnat muhofazasi qoidalari bilan tanishtirish;

- xavfsiz ish uslublarini talabalarga o'rgatish;

- talabalar faoliyatini, kundalik yozib borishini nazorat qilish va talabalarga ishlab chiqarish tavsiflarini tuzish.

Amaliyot o'tayotgan talabaning vazifalari:

- o'quv-amaliyoti o'tilayotgan joining ichki tartib-qoidalariga bo'ysinish;

- amaliyot dasturida ko'zda tutilgan vazifalarni to'liq bajarish;

- mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish sanitariya qoidalarini to'liq o'rganish va ularga qat'iy rioya qilish;

- kundalik tutish va yozma hisobot berish.

V. Hisobotning tarkibi va mazmuni

Amaliyot oxirida talabalar o'zlari to'plagan ma'lumotlar asosida hisobot tayyorlaydilar. Hisobot quyidagi bo'limlardan iborat:

1. Amaliyot o'tilayotgan korxonaning qisqacha tarixi, asosiy faoliyat yo'nalishi, tarkibiy qismi, ish joyi;
2. Korxona (yoki sex) ni boshqaruv tarkibi va ayrim bo'limlarining asosiy vazifalari;
3. Korxona bo'yicha berilgan shaxsiy topshiriq. Bunda Talaba berilgan topshiriqni batafsil yoritadi, zarur chizma, rasm va sxemalar keltiriladi.
4. Korxonadagi atrof-muhit muxofazasi masalalari ham yoritiladi.
5. Xulosa.

Hisobot tuzish uchun amaliyot davomida ekskursiyada kuzatilgan jarayoinlar to'grisida ma'lumotlar to'planadi va ular qaytadan ishlanadi. Talaba hisobotni kafedra tomonidan tayinlangan raxbarga amaliyot tugagandan so'ng bir hafta davomida hisobot, chizmalar, sxemalar va fotosuratlar bilan tikilgan holatda topshiradi. Himoya natijasi ball yoki baho tizimida qayd qilinadi.

